

7-26-2020

LINGUOCULTURAL FEATURES OF ZOOMORPHIC METAPHORS IN SHAVKAT RAHMAN'S WORKS

Gulrukh Yokubovna Sayidova

teacher of secondary school №22 of Romitan district of Bukhara region

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu>



Part of the [Linguistics Commons](#)

Recommended Citation

Sayidova, Gulrukh Yokubovna (2020) "LINGUOCULTURAL FEATURES OF ZOOMORPHIC METAPHORS IN SHAVKAT RAHMAN'S WORKS," *Scientific reports of Bukhara State University*. Vol. 3 : Iss. 3 , Article 7. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol3/iss3/7>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific reports of Bukhara State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

4. Literatura i yozik. Sovremennaya illyustirovannaya entsiklopediya. - M.: Rosmen. Pod redaktsiyey prof. Gorkina A.P. 2006. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_literature/5236/>
5. Tolkoviy slovar Yefremovoy. T.F. Yefremova. 2000. <<https://dic.academic.ru/dic.nsf/efremova/278528/>>
6. Tolkoviy slovar inostrannix slov L.P. Krisina. - M: Russkiy yozik, 1998. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_fwords/53290/>
7. Uchebniy slovar stilisticheskix terminov. - Novosibirsk: Novosibirskiy gosudarstvenniy universitet. O.N. Laguta. 1999. <<https://stilistics.academic.ru/464/>>
8. <<https://uz.wikipedia.org/wiki/Gen>>
9. <<http://uz.denemetr.com/docs/768/index-280822-1.html?page=2>>
10. <<https://kun.uz/72304998>>
11. <[https://en.wikipedia.org/wiki/Orthology_\(language\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Orthology_(language))>
12. <https://www.lexico.com/en/definition/orthology>
13. <<https://ru.wiktionary.org/wiki/>>
14. <<https://www.goodreads.com/book/show/3356445-the-grammar-of-science>>
15. <https://books.google.co.uz/books?id=E_Z8JaM_Q78C&pg=PA2582&lpg=PA2582&dq=%E2%80%9CThe+Meaning+of+Meaning%E2%80%9D+orthology&source>
16. <<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0388000113001095>>
17. <https://en.wikipedia.org/wiki/Charles_Kay_Ogden>

УДК: 81'373.612.2

**SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDAGI ZOOMORF METAFORALARNING
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗООМОРФНЫХ МЕТАФОР В
ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ШАВКАТА РАХМАНА**

**LINGUOCULTURAL FEATURES OF ZOOMORPHIC METAPHORS IN SHAVKAT
RAHMAN'S WORKS**

Sayidova Gulruh Yoqubovna

Buxoro viloyati Romitan tumani 22-son o'rta umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Sayidova Gulrukh Yokubovna

teacher of secondary school №22 of Romitan district of Bukhara region

Tayanch so'zlar: til, madaniyat, leksema, zoomorf, metafora, lingvistika, lingvokulturologiya, trop, metaforizatsiya.

Ключевые слова: язык, культура, лексема, зооморф, метафора, лингвистика, лингвокультурология, троп, метафоризация.

Key words: language, culture, lexeme, zoomorph, metaphor, linguistics, lingvoculturology, trope, metaphorization.

Maqolada o'zbek xalqining mashhur shoiri Shavkat Rahmon she'riyatidagi zoomorf metaforalar lingvistik, chunonchi, lingvokulturologik aspektda tahlil etilgan, shoir she'rlarida qo'llangan zoomorf metaforalar mavzuiy guruhlar bo'yicha tasniflangan, it, qush, laylak, qarg'a kabi zoomorf metaforalar ashyoviy materiallar asosida atroflicha o'rganilgan.

В статье анализируются зооморфные метафоры в поэзии известного узбекского поэта Шавката Рахмана в лингвистическом, а также лингвокультурологическом аспектах, зооморфные метафоры в произведениях поэта классифицированы по тематическим группам, зооморфные метафоры, такие как собака, птица, аист, ворон были подробно изучены на основе материала.

In the article, zoomorphic metaphors in the poetry of the famous Uzbek poet Shavkat Rahmon are analyzed in linguistic, as well as linguocultural aspects, the zoomorphic metaphors used in poetry poems are classified by thematic groups, and zoomorphic metaphors such as dogs, birds, storks, ravens have been extensively studied on the basis of material.

TILSHUNOSLIK

Kirish. O'zbek tilshunosligida zoonimlar (hayvon nomlari) bo'yicha ayrim ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Bunday ishlar jumlasiga turkiy tillarda uy va yovvoyi hayvonlar nomi bo'yicha A.Shcherbak, «Zarbulmasal» asaridagi qush nomlari bo'yicha F.Is'hoqov, XI-XIV asr turkiy yodnomalar tilidagi zoonimlar bo'yicha B.Abdushukurovlarning tadqiqotlarini aytib o'tish mumkin [1,2,8].

Bugungi kunda til va shaxs, til va madaniyat, til va tafakkur kabi masalalarni o'rganish tilshunoslik sohalari – psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmalolingvistika kabi sohalarda chuqurlashib bormoqda. Tilga antropotsentrik yondashuv ushbu sohalarning eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda.

Asosiy qism. Muayyan badiiy asar tiliga xos lingvokulturologik xususiyatlarni tadqiq etishda ko'chim, ya'ni troplarga ham alohida diqqat qaratiladi. Ko'chimlar tizimida metafora eng muhim o'rin tutadi. Aksar ilmiy tadqiqotlarda metaforalar ikki turga, ya'ni lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalariga ajratiladi [3, 47]. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. «Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi» [5,13].

Xususiy-muallif metaforalari esa badiiy-estetik funktsiya bajaradi, tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytiradi. Mazkur metaforalarda hamisha konnotativ ma'no, estetik vazifa mavjud bo'ladi. Metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etadi. Masalan, *ot*, *eshak*, *bo'ri*, *tulki* kabi hayvon va qushlarning nomlari bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llanadi [3, 12].

Badiiy matnning lingvistik tahlilida ko'proq xususiy metaforalarga e'tibor qaratiladi. Chunki bunday metaforalar asar mazmunini boyitish, ta'sirchanlik darajasini ko'tarish va kitobxon badiiy-estetik didini mukamallashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Sharq mumtoz adabiyotshunosligida metafora istilohi istiora deb nomlanadi va u alohida badiiy san'at sifatida o'rganiladi. Ayonki, she'rni go'zal etuvchi, uning badiiy kuchini oshiruvchi vositalar tashbih, istiora va ohangdir. Bular orasida istiora muhim o'rin tutadi. Shoirning buyukligini ko'rsatuvchi fazilatlaridan biri, shubhasiz, uning istioralardan foydalanish mahorati bilan belgilanadi. She'rda lirik qahramonning murakkab kechinmalari, ruhiy holatlari, his-tuyg'ulari va chuqur qayg'usini ifodalashda istiora asosiy badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Metaforalar milliy-madaniy o'ziga xosliklarni yorqin namoyon etuvchi asosiy birlikdir. Ular dastlab faqat til hodisasi sifatida o'rganilgan bo'lsa, keyingi davrlarda u inson tafakkurining ajralmas bir qismi tarzida ham baholanib, shu nuqtai nazarlar bo'yicha ham tadqiq etilmoqda. Lingvokulturologiyaga oid adabiyotlarda metaforalar tilning asosiy lingvomadaniy birliklari hisoblangan maqollar, iboralar, o'xshatishlar bilan bir qatarga qo'yiladi. Lingvokulturologiya hamda kognitiv tilshunoslik bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borgan V.A.Maslovaning fikricha, metafora o'zida "... fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, zero, u milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangandir" [4,91].

O'zbek xalqining mashhur shoirlaridan biri Shavkat Rahmon badiiy asarlarida qo'llangan metaforalarni kuzatish asosida shuni aytish mumkinki, ular ijodkorning individual nutqiy uslubiga xos jihatlarni ko'rsatishi bilan birga o'zbek millatiga mansub til sohiblarining badiiy tafakkuri, til birliklariga bo'lgan munosabatini ham namoyon etgan. Ma'lumki, til tashqi olamga ma'no orqali bog'lanadi. Til belgilari ortida turuvchi hodisalarni o'rganish inson kognitiv faoliyati va nutqiy faoliyat aloqasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shavkat Rahmon asarlaridagi hayvon nomlarining aksariyati ko'chma ma'noda qo'llanilgan. Ular orasida zoomorf metaforalar ko'pchilikni tashkil etadi. Insonlarga xos xususiyatlarni ifodalashda shoir ulardan keng va mohirona foydalangan.

O'zbek xalqining tili va nutqida eng ko'p metaforizatsiya qilingan so'zlardan biri *it* so'zidir. Mazkur metafora shaxsning subyektiv munosabatini bildirishda eng faol ko'chim sifatida xalq tilida qo'llaniladi. Xarakterli tomoni shundaki, *it* so'zi o'zbek tilida etalon bo'lib kelgan metaforalar soni o'ndan ortiq bo'lib, ularning barchasi insonga nisbatan qo'llangan. Buning sabablari sifatida quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

1) itni osonlik bilan qo'lga o'rgatish mumkin, uning tabiatida moslashuvchanlik juda kuchli. Shunga ko'ra, it qo'lga o'rgatilgan eng dastlabki xonaki hayvon bo'lib, o'zbek xalqining turmush tarzida muhim o'rin tutadi;

2) it muntazam ravishda insonlarning ko'z o'ngida bo'lganligi, insonlar ularning kayfiyati, harakati va tabiatidan yaxshi xabardor ekanligi sabab itga xos xususiyatlar ko'chma ma'noda insonga ko'chirilgan. Shu va boshqa sabablarga ko'ra *it* so'zining majoziy ma'noda qo'llanishi ko'p kuzatiladi. O'zbek tilida *it* so'zi ijobiy va salbiy ko'chma ma'noda qo'llaniladi. *It* vafodorlik, sodiqlik timsoli sifatida o'zbek xalq maqollarida ko'p uchraydi. Shavkat Rahmon she'riyatida esa *it* metaforasi, asosan, salbiy ma'noda ifodalangan.

It — yovuz odamlar timsoli:

Kezdim armon to'la jom ko'tarib,
malaklar yig'ladi, itlar tishladi...

Ushbu she'riy parcha shoirning "Yorilgan harakat bayoni" she'ridan. Bu o'rinda *itlar* so'zi juda yovuz, *butun hayoti ig'vo va bo'hton qilishdan iborat kishilar* ko'chma ma'nosida qo'llanilgan. Izoh sifatida aytish mumkinki, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *it* so'zining *boshqalarga zulm o'tkazuvchi odam, malay* ko'chma ma'nosi izohlangan bo'lib, Shavkat Rahmon she'riyatidagi mazkur ko'chma ma'nosi qayd etilmagan. Vaholanki, o'zbek xalqi tilida *it* so'zining *yovuz, butun hayoti ig'vo va bo'hton qilishdan iborat kishi* ko'chma ma'nosida qo'llanilishi ko'p kuzatiladi.

Adabiyotshunoslik ilmida ta'kidlanishicha, fikr-tuyg'uni ta'sirchan ifodalashda istiora tashbihdan kuchli sanaladi. Istiora san'atining ana shu xususiyatini teran anglagan o'tkir zehn sohibi Shavkat Rahmon ulardan keng foydalangan. U o'zbek xalqining ijtimoiy-maishiy hayot tarzida muhim o'rin tutgan va tabiati turlicha bo'lgan hayvonlarning xususiyat-tabiatini bir-biriga zid qo'yish orqali she'rlarida tasvirning emotsional-ekspressivligini oshirishga erishgan. Shoir metaforalar vositasida o'zining falsafiy fikrlari, nozik va pokiza his-tuyg'ulari hamda chin ma'nodagi hurlikka bo'lgan sog'inchi va intilishlarini zo'r mahorat bilan badiiy ifoda etgan. Uning she'rlarida *qush* yoki *qushcha* ozod ruh timsoli sifatida namoyon bo'lgan:

Qushchalar, sayroqi qushchalar,
qafasda bo'g'ilib sayrashar.

Mazkur she'riy parcha shoirning "O'zgaralar dardi" she'ridan. Hajman katta bo'lmagan ushbu she'rda shoir insonlarni ruhan ozod bo'lishga chorlaydi. Shoir she'rda *qushcha* so'zi vositasida *ozod ruh* tushunchasini ifodalashga harakat qilgan. Shoir timsolni to'g'ri va o'rinli tanlagan deyishga to'liq asos bor. Sabab shuki, qush tabiatda erkin yashashga, uzoq-uzoqlarga va osmonga parvoz qilishga moslashgan. Izoh sifatida aytish mumkinki, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *qushcha* so'zining Shavkat Rahmon she'riyatidagi mazkur ko'chma ma'nosi qayd etilmagan. O'zbek xalqi tilida *qush* so'zi *erkin, ozod kishiga* nisbatan majoziy ma'noda qo'llaniladi. Qush zoomorf metaforasi erk, ozodlik tushunchasi sifatida o'zbek she'riyatida an'anaviy tarzda qo'llanib kelinadi. Fikrimizning dalili sifatida XX asr boshlarida ijod etgan iste'dodli shoir Elbekning "Tutqun qushcha" she'ridan misol keltirib o'tish mumkin:

Yotardi bir *qushcha* doim qayg'uda,
Yig'lardi ko'b vaqt, tinmayin o'ksib.

Shoirning mazkur she'rida erk, ozodlik g'oyalari qushcha obrazi timsolida berilgan. She'rda oltindan to'qilgan tor qafasdagi qushchanning tutqinlikdagi holati, uning erkinlik istab qilgan xatti-harakatlari tasvirlangan. Shavkat Rahmon an'anaviy tarzda qo'llanishda bo'lgan mazkur zoomorf metaforadan mahorat bilan foydalangan. Uning she'rlarida laylak ezgulik timsoli sifatida tasvirlangan:

Har yili in qurar laylaklar
minorning nuragan boshiga.

Mazkur she'riy parcha butun dunyoga mashhur Buxorodagi "Minorai kalon" nomli minoraga bag'ishlab yozilgan she'rdan. Ayonki, laylak obrazi o'zbek xalq ertaklarida ko'p uchraydi. Ularning aksariyatida laylak ijobiy xarakterda tasvirlangan. Laylakning tabiatan beozorligi va go'zalligi xalq tasavvurida ezgulik timsoli bo'lib, asosiy konsept sifatida shakllangan. Shavkat Rahmon xalq tasavvuridagi *laylak* obrazini she'rlari tilida tasvirlar ekan, uni *ezgulik, qut-baraka* ma'nolarida qo'llashga harakat qilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da

TILSHUNOSLIK

laylak soʻzining mazkur koʻchma maʼnosi qayd etilmagan. Shoirning ushbu sheʼrida qargʻa soʻzi ham metaforik maʼnoda qoʻllanilgan.

Qargʻa — yovuzlik etaloni:

Minoraning boshiga bu yil ham,
xayriyat, qora qargʻalar qoʻnmapti.

Sheʼrdagi *qargʻa* soʻzimajoziy maʼno ifodalaydi. Shoir *qargʻa* soʻzi vositasida *motam*, *qaygʻu tushunchasini* ifodalashga harakat qilgan, ularning ijod olamiga tasodifan kirib qolganligini aytadi. *Qora* soʻzi *belgi*, *siyoh* kabi maʼnolaridan tashqari, *motam*, *yomon*, *ofat*, *qaygʻu* kabi koʻchma maʼnolarni ham ifodalaydi [6, 730]. Shoir mazkur soʻzni majoziy maʼnoda qoʻllagan. Bu istioraning yopiq koʻrinishidir.

Maʼlumki, qargʻa qish oylarida oʻzbeklar yashaydigan hududlarga uchib keladi. Qadimda qish odamlarga koʻp azob-uqubat, tashvish, ochlik olib kelganligi bois ular bu faslni uncha xush koʻrilmagan. Ularning mifologik dunyoqarashida qishni qargʻalar olib keladi, degan tasavvur ham boʻlganligiga shubha yoʻq. Shunga koʻra *qargʻa* ularning ongida *yovuzlik*, *yomonlik* timsoli boʻlib shakllangan. Bundan tashqari oʻzbek xalqi hayotida ranglar ham muhim ahamiyatga egaligini aytib oʻtish oʻrinlidir. Qargʻaning rangi qora. Qora rang salbiy belgiga egalikni; aza, motam, ifloslik, xunuklik ramzini bildiradi. Laylak esa oq rangli qush. Oq rang ezgulik, yaxshilik, toʻgʻrilik, tozalik, goʻzallik ramzi sifatida oʻzbek xalq tasavvurida shakllangan.

Shoir sheʼrlarida *olaqargʻa* zoomorf metaforasi ham koʻp qoʻllangan. Ayonki, *olaqargʻa* — qargʻalar oilasiga mansub, qora va kulrang patli qargʻa [10, III, 40]. U odatda oʻlimtiklar bilan oziqlanadi. Shu xususiyatiga koʻra mahalliy xalq uni baxtsizlik keltiruvchi, oʻlim, uning xabarini olib keluvchi qush sifatida baholashadi. Shoir *olaqargʻa* obrazi orqali xalqning qaygʻusidan, kishilarning oʻlimidan sevinadigan tuban kimsalarni tasvirlashga harakat qilgan. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, shoir sheʼrlari tilida zoonimlardan quyidagilar metaforizatsiya qilingan:

- yirtqich hayvonlar: *boʻri*, *arson*, *it*, *sher*, *tulki*, *sirtlon*;
- tuyoqli hayvonlar: *qoʻzi*, *qoʻy*, *qoʻzichoq*, *kiyik*, *tuya*, *ot*, *eshak*, *hoʻkiz*;
- kemiruvchi hayvonlar: *sichqon*, *quyon*;
- qushlar: *turna*, *qargʻa*, *bulbul*, *olaqargʻa*, *boyqush*, *koʻrshapalak*, *oqqush*, *qaldirgʻoch*, *kaptar*, *kalxat*, *qoraqush*;
- hasharotlar: *chumoli*, *chivin*, *chigirtka*, *qurt*, *kapalak*, *oʻrgumchak*;
- sudralib yuruvchi va oʻrgimchaksimonlarga mansub jonivorlar: *ilon*, *kaltakesak*, *toshbaqa*, *oʻrgimchak*;
- suvda yashovchi jonivorlar: *baliq*, *qurbaqa*.

Shoir badiiy asarlaridagi majoziy maʼnodagi zoonimlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) *ezgulik va yaxshilik* tushunchalarini ifodalovchi zoomorf metaforalar;
- 2) *yovuzlik va tubanlik* tushunchalarini ifodalovchi zoomorf metaforalar.

Ezgulik va yaxshilik tushunchalarini ifodalovchi zoomorf metaforalar jumlasiga *turna*, *qaldirgʻoch*, *kabutar*, *kapalak* kabilarni qayd etish mumkin. *Yovuzlik va tubanlik* tushunchalarini ifodalovchi zoomorf metaforalar jumlasiga esa *it*, *boʻri*, *qargʻa*, *olaqargʻa*, *boyqush*, *koʻrshapalak* kabilarni aytib oʻtish mumkin. Ayonki, *boʻri* yovuz, qonxoʻr, shavqatsiz odam koʻchma maʼnosida [10, II, 287-b], *boyqush* esa bexosiyat, mashʼum odam koʻchma maʼnosida [10, II, 175] qoʻllaniladi. Mazkur hayvonlarga xos eng muhim xususiyat yirtqichlikdir. Shoir yovuz kishilarni tasvirlashda ana shu xususiyatni alohida eʼtiborga olgan.

Shoir sheʼrlaridagi anʼanaviy metaforalar ham, xususiy metaforalar ham umuminsoniy ezgu gʻoyalarni yoyishga yoʻnaltirilgan. U qoʻllagan metaforalar xalqning diniy eʼtiqodi, ijtimoiy-siyosiy, estetik qarashlari asosida shakllangan, oʻzbek xalqi madaniyatini oʻzida toʻliq aks ettiradi. Ular, shubhasiz, xalqning badiiy-estetik didini takomillashishiga asosiy manbalardan biri boʻla oladi.

Shu oʻrinda mavzuga oid baʼzi fikrlarni aytib oʻtish lozim. «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»da ayrim hayvon va qush nomlarining koʻchma maʼnolari izohlangan. Bunday soʻzlar jumlasiga *boʻri*, *boyqush*, *qoʻzichoq* («bola», «farzand» maʼnosida), *eshak* («befahm, hech narsaga qiziqmaydigan odam» maʼnosida) soʻzlarini shunday soʻzlar jumlasiga kiritish mumkin. Biroq *qargʻa*, *olaqargʻa*, *turna*, *oʻrgimchak* kabi soʻzlarning koʻchma maʼnolarda

qo'llanishi izohlanmagan. Vaholanki, badiiy asarlar va xalq tilida bu kabi so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishi ko'p kuzatiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Shavkat Rahmon she'riy asarlarida qo'llangan zoomorf metaforalar o'zbek xalqining ijtimoiy va madaniy hayotida juda muhim o'rin tutgan va kundalik turmushida muntazam munosabatda bo'lingan hayvon hamda parrandalar nomi bo'lib, ular majoziy ma'noda ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va egrilik, tozalik va ifloslik, go'zallik va xunuklik, erkinlik va tutqinlik kabi tushunchalarni ifodalab kelgan. Alohida ta'kidlash o'rinliki, o'zbek tili bo'yicha yaratiladigan izohli lug'atlarda shoir tomonidan qo'llangan zoomorf metaforalarni qayd etish, ularning izohini keltirish maqsadga muvofiqdir. Chunki ular til va madaniyatimizning ajralmas tarkibiy qismidir. Shavkat Rahmon she'rlaridagi metaforalar xalqimiz tafakkurining muhim qismidir. Ularni madaniyatimiz taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq hodisa sifatida o'rganish fanimiz uchun hamisha dolzarb va ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

1. **Abdushukurov B.** XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar: Filol. fan. nom. ... diss. -T.: 1998. - 207.
2. **Ishoqov F.** «Zarbulmasal»dagi qush nomlariga doir / O'zbek tili va adabiyoti, 1973. - № 1. - B. 46-50.
3. **Yo'ldoshev M.** Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. -Toshkent: Fan, 2006. - 76 b.
4. **Maslova V.A.** Lingvokulturologiya. Uchebnoe posobie dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy. -M.: Akademiya, 2001. - C. 208.
5. **Mukarramov M.** O'zbek tilida o'xshatish. - Toshkent: Fan, 1976.
6. Navoiy asarlari lug'ati. - T.: Adabiyot va san'at, 1972. - 791 b.
7. **Shavkat Rahmon.** Saylanma. - T.: Sharq, 1997. - 383 b.
8. **Sherbak A.** Nazvaniya domashnix i dikix jivotnix v tyurkskix yazikax // Istoricheskoe razvitie leksiki tyurkskix yazikov. - M.: Akkad.nauk. SSSR, 1961. - S. 82-150.
9. **Xudoyberganova D.** Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. - T.: Turon zamin ziyo, 2015. - 40 b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. I-V. -T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006-2008. T. I. 2006. -680 b.; T. II. 2006. - 672 b.; T. III. 2007. -688 b.; T. IV. 2008. -608 b.; T. V. 2008. - 592 b.